

TARIXIY MATNLAR TARJIMASINING NAZARIY VA AMALIY MASALALARI

Xolmatova Roxatoy

Andijon davlat chet tillar instituti

ingliz filologiyasi o'qitish metodikasi va tarjimashunoslik fakulteti tarjima

nazaryasi va amaliyoti 1- bosqich talabasi

Ilmiy rahbar: Abduraxmonov Turaxon Saydullaevich

Andijon davlat chet tillar instituti

Gid hamrohligi, madaniyatlararo muloqot va

tarjimashunoslik kafedrasida o'qituvchisi

ORCID ID: 0009-0004-0439-4868

Annotatsiya: Mazkur maqolada tarixiy matnlarni tarjima qilish jarayonida yuzaga keladigan nazariy qarashlar va amaliy muammolar tahlil qilingan. Xususan, eski o'zbek tilidagi manbalarni boshqa tillarga o'girishda uchraydigan lingvistik va madaniy qiyinchiliklar, arxaik so'zlar va tarixiy realiyalarning berilishi masalalari yoritilgan. Shuningdek, G'arb va Sharq tarjimashunoslik maktablarining yondashuvlari qiyoslanib, o'zbek tarixiy matnlari misolida amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: tarixiy matnlar tarjimasi, arxaik leksika, madaniy realiyalar, eski o'zbek tili, tarjima transformatsiyalari, ekvivalentlik.

Mustaqillikka erishilganidan keyin O'zbekistonda tarixga bo'lgan qiziqish keskin oshdi. Odamlar o'z ildizlarini qidira boshladi, ajdodlar merosini o'rganishga intildi. Abu Rayhon Beruniy, Mahmud Qoshg'ariy, Amir Temur, Bobur kabi buyuk siymolarning asarlarini nafaqat o'qish, balki butun dunyoga tanitish zarurati tug'ildi. Shu bilan birga, jahon tarixshunosligining eng yaxshi namunalarini o'zbek tiliga tarjima qilish ham muhim vazifalardan biriga aylandi. Tarixiy matnlarni tarjima qilish oddiy badiiy yoki publitsistik matnlarni tarjima qilishdan keskin farq qiladi. Nega deganda, tarixiy manba muayyan bir davrning mahsuli bo'lib, unda o'sha zamonga xos voqeliklar, tushunchalar va dunyoqarash aks etgan. Tarjimon faqat so'zlarni boshqa tilga o'giribgina qolmay, balki butun bir

davrning ruhini, madaniyatini va tafakkur tarzini zamonaviy kitobxonga yetkazishi kerak. Nemis olimi Vilgelm fon Gumboldt aytganidek, "har bir tarjima imkonsiz vazifani hal qilishga urinishdir". Ayniqsa, tarixiy matnlar tarjimasida bu gap yaqqol namoyon bo'ladi. Tarjimashunos olim I.G'ofurovning fikricha, "tarjima jarayoni ikki madaniyat va ikki dunyoqarashning uchrashuv nuqtasidir". Bu uchrashuvda tarjimon vositachi vazifasini bajaradi. Tarixiy matnlar tarjimonida esa bu rol yanada murakkablashadi, chunki u nafaqat ikki til, balki ikki davr – o'rta asrlar va zamonaviylik o'rtasida ham ko'prik qurishi lozim. Tarixiy matnlarni tarjima qilishda bir qator ob'ektiv qiyinchiliklar mavjud. Ularni quyidagicha guruhlash mumkin: **Arxaik leksika va grammatik shakllar**. Tarixiy matnlar eskirgan so'zlar va muayyan davrga xos grammatik qurilmalarga boy. Masalan, XVI-XIX asrlarda yozilgan turkiy matnlarda fors-tojik tilidan o'zlashgan murakkab birikmalar, arabiy izofalar, eski turkiy fe'l shakllari juda ko'p uchraydi. "Ey ulus" deyiladimi, "munda keldi" deyiladimi – bularning hammasi zamonaviy o'quvchiga notanish. Tarjimon bu shakllarni zamonaviy tilda qanday berishni o'ylab topishi kerak. Ba'zan aynan saqlab qolish, ba'zan esa zamonaviy ekvivalent bilan almashtirishga to'g'ri keladi. **Tarixiy realiyalar**. Har bir davrning o'ziga xos ijtimoiy-siyosiy tizimi, mansab va unvonlari, pul birliklari, o'lchovlari, kiyim-kechak va taom nomlari bo'lgan. Masalan, "qozikalon", "miroxo'r", "devonbegi", "yasovul", "tovachi" kabi unvonlarning boshqa tillarda aynan ekvivalenti yo'q. Ketford ta'kidlagan "madaniy tarjima qilinmaslik" aynan shunday so'zlarda namoyon bo'ladi. Bunday hollarda tarjimon nima qilishi kerak? Transkripsiya qilish, izoh berish yoki funksional analogiya topish – har birining o'z yaxshi va yomon tomonlari bor. **Diniy va mifologik tushunchalar**. Ko'plab tarixiy matnlar, ayniqsa Sharq manbalari, islom dini bilan bog'liq. Qur'on oyatlari, hadislar, diniy atamalarning tarjimasida alohida bilim va ehtiyotkorlikni talab qiladi. Birgina "bismilloh"ning o'zini tarjima qilishning o'nlab usuli bor. Noto'g'ri tarjima diniy ma'noni buzishi mumkin. Tarixiy matnlarni tarjima qilishda tarjimonlar turli strategiya va usullardan foydalanadilar. Axrorova R.U. va Qosimova Z.Z. ning tadqiqotlarida badiiy tarjimada qo'llaniladigan usullar tarixiy matnlar uchun ham ahamiyatli ekani ko'rsatilgan. Asosiy strategiyalardan biri – domestikatsiya va forenizatsiya. Domestikatsiya – matnni o'quvchiga

yaqinlashtirish, uni tarjima tili madaniyatiga moslashtirish. Forenizatsiya esa – o‘quvchini matnga yaqinlashtirish, asl madaniyatning o‘ziga xosligini saqlash. Tarixiy matnlar tarjimasida bu ikki strategiya o‘rtasidagi muvozanatni topish juda muhim. Agar matn haddan tashqari moslashtirilsa, uning tarixiy ruhi yo‘qoladi. Agar asl holicha saqlansa, matn tushunarsiz bo‘lib qoladi. Leksik transformatsiyalar ham muhim rol o‘ynaydi. Tarixiy matnlarda quyidagi leksik o‘zgartirishlar keng qo‘llaniladi: Transkripsiya – "yasovul", "tovachi", "qushbegi" kabi so‘zlarni aynan shaklida berish. Kalkalash – so‘z yoki iborani qismlarga ajratib, har bir qismini tarjima qilish. Masalan, "amir ul-umaro" – "amirlar amiri". Kontekstual almashtirish – so‘zning lug‘aviy ma‘nosidan kelib chiqmasdan, kontekstga mos ma‘noni tanlash. Tavsifiy tarjima – "samovar" – "choy qaynatish uchun metall idish" deb izoh berish. Grammatik transformatsiyalar ham bor.

Eski o‘zbek tilidagi uzun qurilmalarni zamonaviy tilga soddalashtirish, gap bo‘laklarining o‘rnini almashtirish, majhul nisbatdagi fe‘llarni aniq nisbatga o‘tkazish kabilar shular jumlasidan. O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, tarixiy merosni tarjima qilish borasida katta ishlar qilindi. Amir Temurning "Tuzuklari", Boburning "Boburnomasi", Mahmud Koshg‘ariyning "Devonu lug‘otit turk" asari dunyoning ko‘plab tillariga tarjima qilindi. Bu tarjimalar tajribasi shuni ko‘rsatadiki, tarixiy matn tarjimoni nafaqat filolog, balki tarixchi, etnograf va dinshunos ham bo‘lishi kerak. "Boburnoma" tarjimalari bu borada alohida qiziqish uyg‘otadi. Zahiriddin Muhammad Boburning mashhur asari dunyoning o‘ndan ortiq tillariga tarjima qilingan. Ingliz tilidagi tarjimalarni – Uilyam Erskin, Annet Beverij, Uiler Tekston tarjimalarini solishtirib ko‘rsak, qiziqarli manzara namoyon bo‘ladi. Beverij tarjimasida filologik jihatdan aniqroq, matnga yaqinroq. Tekston tarjimasida esa o‘quvchiga moslashtirilgan, izoh va sharhlar bilan boyitilgan. Ikkalasining ham o‘z o‘rni bor. O‘zbek tilidagi nashrlarda esa matnni zamonaviy o‘zbek tiliga "soddalashtirish" va asl nusxadagi eski turkiy unsurlarni saqlash o‘rtasidagi muvozanat masalasi dolzarb bo‘lib qolmoqda.

Zamonaviy texnologiyalar ham tarjima sohasiga kirib kelmoqda. Sun'iy intellekt va neyron tarmoqlarning rivojlanishi yangi imkoniyatlar yaratdi. Adiba Qosimova

ta'kidlaganidek, "neyro-mashina tarjimasida sun'iy intellekt tizimlariga katta hajmdagi ikki tilli matnni tahlil qilish va eng aniq tarjimalarni qilish imkonini beradi". Biroq, tarixiy matnlar tarjimasida sun'iy intellektning o'ri hozircha cheklangan. Mashina tarixiy kontekstni, muallifning niyatini, nozik madaniy ma'nolarni to'liq anglay olmaydi. Shuning uchun tarixiy matnlar tarjimasida inson omili – tarjimonning bilimi, tajribasi va sezgirligi hal qiluvchi ahamiyatga ega. Tarjimashunoslikning asosiy tushunchalaridan biri – ekvivalentlik va adekvatlikdir. Tarixiy matnlar tarjimasida bu tushunchalar o'ziga xos tarzda namoyon bo'ladi. Ekvivalentlik – matnlarning mazmuniy va funksional mosligi. Tarixiy matnda ekvivalentlikka erishish juda qiyin, chunki manba tildagi ko'plab tushunchalarning tarjima tilida to'liq ekvivalenti bo'lmasligi mumkin. Adekvatlik esa – tarjimaning kommunikativ vazifani bajarish qobiliyati, ya'ni matnning o'quvchiga ta'siri asl matn ta'siriga mos kelishi. Amirkulov E. o'z tadqiqotida siyosiy matnlar misolida adekvatlik masalasini tahlil qilib, tarjimon "matnning nafaqat mazmunini, balki uning emotional-ekspressiv bo'yog'ini, muallifning pozitsiyasini ham saqlashi lozim" degan xulosaga keladi. Tarixiy matnlarda bu talab yanada muhim, chunki ular ko'pincha muallifning sub'ektiv qarashlarini, davrning mafkurasini aks ettiradi. Xulosa qilib aytganda, tarixiy matnlar tarjimasida – murakkab, ko'p qirrali va mas'uliyatli jarayon. Bu jarayonda tarjimon bir vaqtning o'zida tilshunos, tarixchi, etnograf va adabiyotshunos sifatida faoliyat yuritishi kerak. Tarixiy manbaning har bir so'zi, har bir iborasi o'zida butun bir davrning nafasini, madaniyatini va tafakkurini mujassam etadi. O'zbekistonda tarixiy matnlar tarjimasida quyidagi vazifalarni amalga oshirish maqsadga muvofiq deb o'ylayman: Birinchidan, tarixiy matnlar tarjimasida bo'yicha ixtisoslashgan ilmiy markaz tashkil etish kerak. Ikkinchidan, eski o'zbek tilidan zamonaviy tillarga tarjima qilish bo'yicha yagona standartlar va qo'llanmalar ishlab chiqish lozim. Uchinchidan, tarixiy atamalar va realiyalarning ko'p tilli lug'atini yaratish foydali bo'lardi. To'rtinchidan, sun'iy intellekt texnologiyalarini tarixiy matnlar tarjimasiga tatbiq etish bo'yicha tadqiqotlarni kengaytirish kerak. Beshinchidan, tarjimonlar uchun maxsus malaka oshirish kurslarini tashkil qilish zarur. Zero, buyuk ajdodlarimizning bebaho

merosini jahon hampamiyatiga yetkazish, ularning asarlarida aks etgan ma'naviy va madaniy qadriyatlarni asrab-avaylash – bugungi kun tarjimonlarining muqaddas burchidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abduraxmanov, T. S. (2025). O‘ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA 41-SON ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI 20.06.2025 O‘ZBEK VA INGLIZ TILARIDA KO‘CHIRMA VA O‘ZLASHTIRMA NUTQNING TAHLILI VA LINGVA-DIDAKTIK MASALLARI [Journal-article].
2. Abduraxmanov, T. S. & Andijon davlat chet tillari instituti. (2025). Maishiy Diskursning Yoshga Doir Tasnifi [Ilmiy Metodik Jurnal]. Journal Of Iqro, Object]. <https://www.wordlyknowledge.uz> (Original Work Published 2025)
3. Axrorova, R. U., & Qosimova, Z. Z. (2023). Badiiy tarjima va uning tarixi, turlari, rivojlanishi va lingvistikadagi ahamiyati. Educational Research in Universal Sciences, 2(17 SPECIAL), 504–506.
4. Amirkulov, E. (2025). Siyosiy matn tarjimasining nazariy etimologiyasi. Бюллетень педагогов нового Узбекистана, 3(6), 101–104.
5. G‘ofurov, I., Mo‘minov, O., & Qambarov, N. (2012). Tarjima nazariyasi: Oliy o‘quv yurtlari uchun o‘quv qo‘llanma. Toshkent: Tafakkur-Bo‘stoni.
6. G‘afurov, I. (2008). Tarjimshunoslik mutaxassisligiga kirish. Toshkent.
7. Tukhtasinov, I. Adabiy matnlarda stilistik vositalarning tarjima strategiyalari. inLIBRARY ilmiy elektron kutubxonasi.